

## **KASALLIKLARNI DAVOLASHDA TIBBIY DIAGNOSTIK TEKSHIRUVLARNING AHAMIYATI**

Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali Davolash fakulteti 3-bosqich talabasi

**Xujaqulova Mehrigon Umbarali qizi**

**Anotatsiya:** Ushbu maqola tibbiy diagnostik tekshiruvlar, ularning bir-biridan farqli va afzallik tomonlari haqida batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek, maqola bemordagi kasalliklarni aniqlash va uni davolash maqsadida o'tkazish lozim bo'lgan tekshiruvlarni organizmdagi sistemalar bo'yicha tavsiflashga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Rentgenografiya, veloergometriya, spirometriya, sistoskopiya, urografiya, EKG, UTT, exokardiografiya.

### **KIRISH**

**Diagnostika** (yun. diagnostikos — aniqlashga qodir) — klinik tibbiyot va veterinariyaning kasallikni aniqlash, uni davolash va oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish maqsadida organizmni tekshirish usullarini o'rganadigan bo'limi. Diagnostika fan sifatida uch asosiy qismga bo'linadi: 1) bemorning shikoyatlarini yig'ish va o'rganish metodikasi, kasallanish va hayot tarixi, shuningdek, diagnostik texnika, ya'ni bemorni tekshirish usullari; 2) kasalliklarda kuzatiladigan har xil belgilar (simptomlar) haqidagi ta'limot (semiotika); 3) bemorni tekshirib, olingan ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan baholab, tashqis qo'yish uchun vrachning muhokama yuritish metodikasi, ya'ni tashxis metodikasi.

Funksional kasalliklar diagnostikasida tashhis qo'yishda asosiy va yo'ldosh kasalliklar hamda asoratlar sabablari aniklanadi, sistema va a'zolar faoliyatining buzilish darajasi belgilanadi, tekshirilayotgan bemorning shunday kasallik bilan og'rigan boshqa bemordan farq kiladigan fiziologik xususiyatlari hisobga olinadi. Patologo-anatomik diagnostikada bemor vafot etganidan keyin uni yorib olingan ma'lumotlar va to'qimalar biontatini taxlil qilish asosida tashhis qo'yiladi. Diagnostikani takomillashtirishda telekommunikatsiya, internet va elektron aloqalardan foydalanish mumkin.

Qon va boshqa tekshirilgan materiallarning miqdoriy va sifat tarkibini nozik tarzda aks ettiradigan eng muhim diagnostika usullar.

- Umumiy qon tahlili
- Suxarevga ko'ra qon ivish vaqti
- O'n ikki barmoqli ichak tarkibini o'rganish

- Umumiy siydik tahlili
- Nechiporenko testi (siydik)
- Zimnitskiy testi (siydik)
- Reberg-Tareev testi (qon va siydik)
- Kundalik siydik miqdoridagi protein)
- Mahalliyashtirish testi (Meyers-Stamey)
- Prostata massajidan so'ng siydikni tahlil qilish
- Prostata bezining sekretsiyasini tahlil qilish
- Ejakulyatsiya tahlili (sperma tahlili)
- Uretradan materialni o'rganish (qin, bachadon bo'yni kanali)
- Siydikdagi afyun va kannabinoidlarni aniqlash
- Skatologiya
- Tahlil yashirin qon uchun qilingan
- PAP smear (Bethesda tasnifi tavsifi)

### NAFAS A`ZOLARINING NUR DIAGNOSTIKASI

Rentgen va boshqa nurlarning diagnostikada qo'llanilishi ko'krak qafasi a`zolarini funksional va morfologik jihatdan o'rganishda, kasalliklarini o'z vaqtida aniqlashda zamonaviy pulmonologiyaning rivojlanishiga katta xissa qo'shdi. Hozir klinikada nafas a`zolarini rentgenologik va nur qo'llanadigan boshqa usullar bilan tekshirish katta ahamiyatga ega, chunki ular ko'p hollarda, tashhisni aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kasallikning umumiy rentgen diagnostikasi turli intensivlikka ega bo'lgan soya yoki yorug'likni o'pka va ko'ks oraliq'ida aniqlashga asoslanib, bir patologik jarayonni ikkinchisidan farq qilishga imkon beradi.

Rentgenoskopiya va rentgenografiya juda keng tarqalgan klassik tekshirish usullariga kiradi. Rentgenoskopiya bemor shtativ oldida, ekran orqasida, unga qarab turadi. Rentgen apparatining elektr sxemasidagi katta kuchga ega tokni ulaganda ko'krak qafasidagi a`zolar ekranda ko'rinadi. Tekshirish vaqtida ko'krak qafasining shakli, qovurg'alarning turishi, qovurg'aaro masofa holati va ko'ks oraliq'i a`zolariga e'tibor beriladi. Ekranda tasvirning koptrastligi hamda keskinligini oshirish uchun diafragma qisqartirilib, chegaralangan maydoncha kichik nur tutami bilan yoritiladi va o'pkaning hamma qismlari birin-ketin, o'ng tomonini chan tomoniga solishtirib, sinchiklab o'rganiladi. Rentgenoskopiya vaqtida bemorni turli proektsiyalarda (old, yon, qiya va b.q.), turli holatda (turg'azib, yotqizib, yonboshlatib) yoki ko'p proektsiyalarda tekshirish mumkin.

**Bronxografiya** (bronx va yun. Grapho — yozaman) — hiqildoq (traxeya) va bronx yo'llariga kontrast modda



yuborib, rentgenologik tekshirish usuli. Birinchi marta 1918-yil o'tkazilgan. Bronx, o'pka, qorin bo'shlig'i a'zolari kasalliklari va boshqa ga tashhis qo'yishda qo'llaniladi. B. qilish lozimligi yoki mumkin emasligini vrach belgilaydi, bunda albatta bemorning umumiy ahvoli va kasalligi hisobga olinadi.

### **OVQAT HAZM QILISH A`ZOLARINING NUR DIAGNOSTIKASI**

Ovqat hazm qilish a'zolarini rentgenologik tekshirish uchun atom og'irligi past havo, kislorod, karbonat angidrid gazi, og'ir metallar tuzlari va yod saqlovchi moddalar - yodlipol, sulfayodol va b.q. qo'llaniladi.

Standart bariy sulfat aralashmasi S.A. Kopelman usulida tayyorlanadi. Buning uchun bariy sulfat elakdsa elanadi. So'ngra 100 g bariyni 80 ml suvda aralastirib qaynatiladi, natijada bir xil emulsiya hosil bo'ladi, u me'da-ichak yo'lini rentgenda ko'rish uchun ichirishga tayyor hisoblanadi. Yo'gon ichak kontrast hukna (klizma) yordamida kontrastlanadi (irrigoskopiya), buning uchun yuqoridagi bariy sulfat aralashmasi tayyorlanadi, lekin bunda 400 - 600 g bariy sulfat kukuni 1000 ml suvda eritib qaynatiladi. Bariy sulfat konsentrasiyasi qancha yuqori bo'lsa, tasvirning intensivligi va kontrastligi shuncha yuqori va yaxshi bo'ladi.


### **YURAK VA YIRIK TOMIRLARNING NUR DIAGNOSTIKASI**

Yurak-tomir sistemasini ultratovush va rentgenologik usullar bilan tekshirmasdan zamonaviy klinikada bu a'zo kasalliklarini aniqlash va tez yordam ko'rsatish mumkin emas. Nur usullari bilan tekshirganda yurak va yirik tomirlarning morfologik tuzilishi, ko'krak qafasida joylashishi, konfiguratsiya va o'lchamining o'zgarganini birmuncha oldinroq aniqlash va tomirning urishi (kuchi, ritmi va uning tezligi) to'g'risida ma'lumot olish mumkin

Yurak va yirik tomirlarni UTT usullari keng tarqalgan. Bu usullar orasida exokardiografiya yetakchi o'rinni egallaydi. Yurak va yirik tomirni tekshirishii UTT dan boshlash kerak. Hozirgi vaqtda yurak-tomir sistemasini radionuklid usullari bilan (radiokardiografiya, skanerlash va ssintigrafiya) tekshirish rivojlangan. Kasallikni aniqlashda KT va MRT keng tarqalmoqda.

**Elektrokardiografiya** (elektro., kardio... va gramma) (EKG) — yurak muskuli ishlayotganda hosil bo'lgan elektr impulslari yozib olingan egri chiziq. Elektrokardiografiya elektrokardiograf yordamida qog'ozga yoki fotoplyonkaga tushiriladi. Butun gavdaga tarqaluvchi yurak toklari (harakat toklari) EKG si gavdaning turli qismlari (ko'krak qafasi, qo'l va oyoqlar)ga o'rnatilgan va elektrokardiografga ulangan elektrodlar bilan yozib olinadi. Hozirgi zamon tibbiy texnika yutuqlari tekshirilayotgan odam ancha uzoq masofada bo'lsa ham tele yoki radiouzatkichlar yordamida EKGni yozib olish imkoniyatiga ega. Bunday usullar og'ir jismoniy sinovlarda, sportchilar, kosmonavtlar va boshqalarning yurak faoliyatini

kuzatish imkoniyatini beradi.



## Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir tibbiy diagnostik teshiruv usuli o'zining afzallik va kamchilik tomonlariga ega. Nur tashxislash usullari organizmning nurlanishiga ko'ra kamchiliklarga ega, ammo, boshqa tibbiy diagnostic tekshiruv usullardan ko'ra ko'proq ma'lumot beradi. Har bir sistema uchun alohida tibbiy tekshiruv buyuriladi. Bemorda kasallikni, uning keltirib chiqaruvchi sababni aniqlashda diagnostik tekshiruvning ahamiyati katta, shu sababli ham bemorga qaysi tibbiy tekshiruvni buyurish shifokorning mahorati bog'liq hisoblanadi. Nafas olish sistemasi kasalliklarida ko'proq rentgenografiya, spirometriya, veloergometriya tekshiruv usullari, yurak qon-tomir sistemasini baholashda EKG, veloergometriyada yuklama berish, exokardiografiya usullaridan, siydik ajratish sistemasini funksiyani baholashda bo'lsa sistoskopiya, uroografiya, siydik tahlili, UTT tekshiruvlari buyuriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ichki kasalliklar/ A.Gadayev .: T "Turon Zamin Ziyo" 2016. – 800 bet.
2. Gadayev A.G. Ichki kasalliklar Propedevtikasi.: T "Muharrir" 2018. – 712 bet
3. Клиник радиология асосларн: Тиббиёт ин-т. талабалари учун дарслик. -Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002.-520 б.
4. Umumiy va tibbiy radiologiya. O'quv qo'llanma. M.I.Bazarbayev. G.G'.Radjabova. G.A.Bekmurodova. N.A. FAyzullayeva. M.Q.Norbutayeva.: T "Cho'lpon" 2019. 272 bet.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Diagnostika>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Bronxografiya>
7. [www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)
8. [www.azkurs.uz](http://www.azkurs.uz)
9. [www.fayllar.org](http://www.fayllar.org)